

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA

UNIVERSITETI

**ISSIQLIK TA'MINOTI VA ISSIQLIK
TARMOQLARI**

**FANIDAN
LABORATORIYA ISHLARI UCHUN
USLUBIY KO'RSATMA**

TOSHKENT 2017

Tuzuvchilar: Koroli M.A., Sotnikova I.V., Azimova M.M. «Issiqlik ta'minoti va issiqlik tarmoqlari» fani bo'yicha tajriba ishlari uchun uslubiy ko'rsatma. Toshkent ToshDTU, 2017.- 44 bet.

Uslubiy ko'rsatma 5310100 Energetika (issiqlik energetika) yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy uslubiy kengashining qaroriga asosan chop etishga ruxsat berilgan.

Taqrizchilar:

Belousov V.A. – ToshIEM ishlab chiqarish bo'yicha direktor

Abdullaev B. – ToshDTU “Elektrotexnika” kafedrasida dotsenti, t.f.n.

Kirish

Ishlab chiqarilayotgan energiyaning asosiy qismini elektr va issiqlik energiyalari tashkil qilib, ularni ishlab chiqarishda yoqilg'ı energetika zaxira resurslarini 50% ishlatilyapti.

Respublikamizning yoqilg'ı energetika zaxira resurslarining deyarli 40% ga yaqini yashash, jamoat va sanoat binolarini isitish, ventilyatsiya va issiq suv hamda binolarini issiq bug' bilan ta'minlashga sarf bo'ladi. Yashash binolari va barcha jamoat binolari markazlashgan tizim yordamida issiq suv hamda issiqlik bilan ta'minlanadi. Issiqlik ta'minoti ikki xil usulda amalga oshiriladi: markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan. Markazlashtirilmagan turdagi issiqlik ta'minotida issiqlik manbai va iste'molchisi bir-biriga yaqin joylashadi. Issiqlik tarmog'ı bo'lmaydi. Markazlashtirilmagan issiqlik ta'minoti mahalliy (issiqlik ta'minoti mahalliy qozonxonadan) va yakka ta'minot (xonodoni isitish issiqlik qozonlari orqali) ta'minlashlarga bo'linadi.

Respublikadagi zamonaviy issiqlik ta'minotining tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda markazlashgan issiqlik ta'minoti orqali qariyb 80% issiqlik iste'molchilari, issiq suv ta'minoti orqali esa 1,8 mln aholi foydalanadi.

Respublikaning shahar va tuman markazlaridagi issiqlik ta'minoti Energetika vazirligi, hokimiyat va boshqa markazlar tasarrufidagi issiqlik manbalari orqali amalga oshiriladi.

Issiqlik iste'molchilari markazlashgan issiqlik ta'minoti tizimining eng nozik bo'lagi hisoblanadi. Ma'lumki, O'zbekistonda ko'pgina hollarda yakka issiqlik tarmoqlarida gidroelevatorlarni issiq va sovuq suvni qo'shish qurilmalari sifatida isitish bog'liqlik sxemalaridan foydalaniladi. Elevatorni ishlashi uchun berilayotgan va qaytish tarmog'ida bosimlar farqi bo'lishi zarur. Binoning issiq suv ta'minoti tizimi issiqlik tarmog'iga bevosita ulangan bo'lishi kerak, yoki suv isitgich orqali, ya'ni suv o'tgazgichdan suvini isitish orqali ulangan bo'lishi kerak. Me'yoriy hujjatlarga asosan suv quvurlarini ishlash muddati 15-20 yil deb belgilangan.

Markazlashgan issiqlik ta'minotida issiqlikni uning ta'minotchilariga uzatish quyidagicha amalga oshiriladi:

- issiqlik tarmoqlari magistrali orqali yashash xonalariga va yirik iste'molchilariga uzatish orqali,
- taqsimot tarmoqlari orqali har bir iste'molchiga uzatish orqali.

Issiqlik uzatilishni yer osti va yer usti tarmoqlari orqali amalga oshiriladi. Estetik nuqta nazardan kelib chiqqan holda ko'pincha yer osti tarmog'idan foydalaniladi. Markazlashgan issiqlik ta'minoti tizimining iqtisodiy samaradorligi issiqlik qurilmalari va o'tgazgich quvurlarini izolyatsiyasiga bog'liq. Issiqlikni izolyatsiyasi issiqlik isroflari va izolyatsiyalangan yuzani ruxsat berilgan temperaturasini ta'minlashga xizmat qiladi. Uzatish quvurlarida issiqlik isrofini kamaytirish yoqilg'ı resurslarini iqtisodiy tejamkorligini asosiy omili hisoblanadi.

Texnika xavfsizligi qoidalari

Laboratoriya mashg'ulotlarining barchasi korxonah rahbarlari bilan kelishilgan holda, amaldagi ob'yektlarda o'tkaziladi.

1-laboratoriya mashg'uloti Energetika fakultetining texnik yerto'lasida joylashgan eksperimental stendda o'tkaziladi.

2-laboratoriya mashg'uloti TDTU sport kompleksining texnik yerto'lasida o'tkaziladi.

3-laboratoriya mashg'uloti TDTU sport kompleksining texnik yerto'lasida o'tkaziladi.

4-5-laboratoriya mashg'uloti TDTU sport kompleksining texnik yerto'lasida o'tkaziladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda asosiy texnika xavfsizligi qoidalari (barcha mashg'ulotlar tegishli korxonaharning maxsus vakillari ishtirokida o'tkaziladi):

-texnik pasportda ko'rsatilgan me'yorlardan ortiq bo'lgan temperatura va bosimlarda laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish taqiqlanadi;

-issiqlik kirish tizimiga alohida joy ajratilgan bo'lishi kerak, eshiklari tashqariga ochiladigan, mustahkam berkitiladigan, kirishga qulay bo'lishi zarur;

Laboratoriya mashg'ulotlarini boshlashdan avval, tashqi tekshiruv orqali quvurlarning sozligi, o'lchov asboblari va boshqa uskunaharning to'g'ri ishlayotgani tekshiriladi;

- kirish uskunasi yaxshilab izolyatsiyalangan bo'lishi kerak;

- mashg'ulot joyini toza tutish, mashg'ulotni tugatgach, o'lchov qiymatlarini yozib olish va taqdim etish kerak. Mashg'ulot joyini faqat o'qituvchining ruxsati bilan tark etish;

-mashg'ulot o'tkazayotgan o'qituvchi yoki laborantning talablarini bajarish;

-uskunahning noozligi aniqlanganda, o'qituvchi yoki maxsus vakilga xabar berish.

Yong'in texnika xavfsizligi, texnika xavfsizligi va korxonahda o'rnatilgan qoidalariga amal qilinmagan holatlarda, baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida talabalar laboratoriya xonasidan chiqariladi.

Talabalariga ta'qiqlanadi:

- rahbarning ruxsatisiz laboratoriya mashg'ulotini kirish sxemalarini yoqish va o'chirish ;

- laboratoriya mashg'ulotiga bog'liq bo'lmagan anjomlarni yoqish;

- isituvchi quvur va armaturalarga suyanish.

Talaba majbur

- avariyaviy holat yuz berganda laboratoriya xonasidan evakuatsiya qilinish rejasi bilan tanishib chiqishga;
- laboratoriya mashg'uloti paytida tartibni saqlashga;
- laboratoriya mashg'ulotini boshlashdan avval, mashg'ulot o'tish tartibi va o'lchov uslublari bilan tanishib chiqishga.

1- LABORATORIYA ISHI

Issiqlik ta'minotida oqimchaviy nasos (elevator) ning aralashma koefitsiyenti va FIKini aniqlash


Ishdan maqsad:

1. Issiqlik tarmoqlarida isitish sistemasining ulanish loyihalari bo'yicha nazariy bilimni mustahkamlash;
2. Ta'sir etuvchi harakatdagi qurilmalarda tajribaviy izlanishlarni malakaviy takomillashtirish;
3. Tajribaviy izlanish yo'li bilan ma'muriy binolarning issiqlik ta'minotiga kirishida oqimchaviy nasosning aralashma koefitsiyenti va FIKi qiymatlarini, shuningdek, uning asosiy konstruktiv o'lchamlarini tekshirish.

1.1.Nazariy qism

Abonentli ulanish – unga ulangan binoning isitish sistemasini boshqarishdagi asosiy tutashuv tizim hisoblanadi va u issiqlik sistemali rejimiga munosib issiqlik tashuvchilar parametrlari hamda issiqlik sarfini hisobga olishni, isitish sistemasida issiqlik tashuvchini alohida isitish tarmoqlari bo'yicha bo'lishini nazorat qilish uchun xizmat qiladi. Normal issiqlik ta'minoti binoni mahalliy isitish, ya'ni issiqlik ta'minotini to'g'ri ekspluatatsiya qilishga bog'liq. Mahalliy isitish sistemasiga boradigan issiqlik tashuvchilar haroratini tushirish uchun suvning harorati 150°C gacha bo'lgan issiqlik tarmoqlarida aralashtiruvchi qurilmalarni qo'llash talab qilinadi. Bunga mahalliy isitish sistemasidan qaytgan suvni issiqlik tarmog'idan kelayotgan issiq suvga aralashtirish yo'li bilan erishiladi. So'ngra cheklangan sanitar meyor bo'yicha jamoat va yashash binolariga beriladigan maksimal suv haroratida isitish tarmoqlariga ulangan isituvchi qurilmalardagi tizimlarga aralashtiruvchi qurilmalar o'rnatiladi. Aralashtiruvchi qurilma sifatida konstruksiyasi oddiy va mustahkamligi bilan ajralib turuvchi – *oqimchaviy nasos (elevator)*lar keng qo'llaniladi. Abonentga kirishdagi o'rnatilgan aralashtiruvchi qurilmalar, uzatish tizimidagi issiq suvga qaytish tizimidagi sovuq suvni aralashtiradi. Natijada uzatuvchi tizimdagi suvdan ko'ra pastroq haroratdagi aralashma suv hosil bo'ladi.

Oqimchaviy nasos (elevator)lar isitish sistemasidagi hisobiy bosim yo'qotilishi 0,015 MPa gacha bo'lgan hollardagina qo'llanilishi mumkin. Undan yuqoriroq bosim yo'qotilishida esa markazdan qochma nasoslardan foydalaniladi.



1.1-rasm. Oqimchaviy elevator 1-soplo, 2- qabul qilish kamerasi, 3- aralashma kamerasi, 4- diffuzor

Issiqlik tarmogʻining uzatish quvuridan qaytish quvuriga ulangan elevatorning soplo(1)kesimiga issiq tarmoq suvi keladi. Tarmoq suvining katta tezlikda soplodan chiqishi natijasida uning taʼsir doirasida siyraklanish va ejeksiya effekti vujudga keladi. Shu bilan qabul qiluvchi kamera (2) elevatori isitish sistemasining qaytuvchi quvuri orqali qaytuvchi suvni soʻrib oladi va aralashuv kamerasi (3) da ushbu oqimlar aralashmasi vujudga keladi. Diffuzor (4) da koʻndalang kesim tezligi yuzasi oqim harakati boʻyicha oshishi natijasida gidrodinamik bosim tushadi, gidrostatik bosim esa ortadi. Diffuzor oxiridagi va tushuvchi quvurdagi gidrostatik bosim har xilligi orqali isitish sistemasini ishlashi uchun sirkulyatsion siquv hosil qilinadi.

Choʻyan elevatorlarning asosiy oʻlchamlari 1.1- jadvalda keltirilgan.

1.1- jadval

| Elevator raqami | Z | L | Lc | d _r |
|-----------------|-----|-----|-----|----------------|
| 1 | 425 | 207 | 110 | 15 |
| 2 | 425 | 228 | 100 | 20 |
| 3 | 625 | 308 | 145 | 25 |
| 4 | 625 | 331 | 135 | 30 |
| 5 | 625 | 353 | 125 | 35 |
| 6 | 720 | 476 | 175 | 47 |
| 7 | 720 | 472 | 155 | 52 |

1.2. Issiqlik tarmoqlariga ulanish qurilmasi taʼrifi


Issiqlik tarmoqlariga ulangan jamoat va yashash binolarini isitishning keng tarqalgan turlari suv-suvli elevator yoki aralashuvchi nasoslar sxemalari hisoblanadi. ToshDTU oʻquv korpusi issiqlik tizimiga elevator(1-rasm) oʻrnatilgan. Issiqlik oʻtishda mahalliy isitish sistemasidan qaytuvchi sovigan suvni soʻradi va kerakli haroratdagi aralashma suvi mahalliy isitish sistemasiga tushadi. U – elevator aralashma suv sarfi G_2 , issiqlik tarmogʻidan keluvchi issiq suv sarfi G_1 ga nisbati maʼlum *aralashma koeffitsiyentini* ifodalaydi:

$$U = \frac{G_2}{G_1} \quad (1)$$

Shuningdek, aralashma koeffitsiyentini issiq suv t_1 , qaytuvchi suv t_2 va aralashma suvi t_3 haroratlari orqali ham aniqlash mumkin:

$$U = \frac{t_1 - t_3}{t_3 - t_2} \quad (2)$$

Issiq suv issiqlik tarmog'i orqali quvur 1 ga keladi va unga quyidagilar biriktirilgan: mahalliy isitish sistemasini kiritish qurilmasidan zadvijskalar 5 va 8, uzatuvchi quvurdagi dag'al iflosliklarni to'plovchi moslama (gryazavik) 3, qaytuvchi quvurdagi dag'al iflosliklarni to'plovchi moslama (gryazavik) 11, qaytuvchi suvni issiq suv bilan aralastiruvchi elevator 4, sarfini rostlovchi 6 termometrlar T_1, T_2, T_3 , manometrlar M_1, M_2, M_3 .



1.2-rasm. Elevator tizimi sxemasi

1.3. Tajriba ishining uslubiy ishlanishining bajarilishi

- a) kuzatuv ro'yhatini tayyorlash (jadval 1.2.);
- b) manometr ko'rsatishini yozish M_1, M_2, M_3 ;
- v) termometr ko'rsatkichlarini yozish T_1, T_2, T_3 ;
- g) tarmoqdagi suv sarflarini yozish.

Mahalliy isitish sistemasidan qaytuvchi quvurdagi bosim manometri M_1 orqali nazorat qilinadi. Mahalliy isitish sistemasida bosim tushishi M_2 va M_3 manometrlari ko'rsatkichlari orqali nazorat qilinadi. Ma'lum vaqt mobaynida 10 va $10''$ sarf o'lchovlari ko'rsatkichlari olib tashlanadi. O'lchangan T_1, T_2, T_3 haroratlari orqali elevator aralashma koeffitsiyenti (2)-formula bo'yicha aniqlanadi. O'lchov sarfini ko'rsatkichi orqali isitish sistemasidagi sirkulyatsion suv sarfini aniqlaymiz. G_1 va G_2 orqali elevator aralashma koeffitsiyenti 1-formula bo'yicha aniqlanadi. 1- va 2-formula orqali hisoblangan aralashma koeffitsiyent hisoblangan natija qiymatlari bir-biriga yaqin bo'lishi kerak.

1.4. Kuzatuv natijalari ishlanmalari

1.4.1. Elevatorning asosiy o'lchamlarini hisoblash

Elevatorning o'lchamining diametri ushbu ifodadan aniqlanadi:

$$d_{\bar{a}} = 8.5 \sqrt[4]{\frac{G_3^2}{P}} \quad (3)$$

Elevator soplo diametri quyidagiga teng:

$$d_c = \frac{d_{\bar{a}}}{1+u} \quad (4)$$

Elevatorning normal ishlashini aniqlashtiruvchi elevator oldidagi issiqlik tarmog'ining bosimning har-xilligi ushbu ifodadan topiladi:

$$H = 1,4 P \cdot (1+U)^2 \quad (5)$$

bu yerda U – tajriba ishini o'tkazishda olingan aralashma koeffitsiyenti;

P – M_1 va M_2 manometrlar ko'rsatkichlari farqi bo'yicha isitish tizimidagi mahalliy qarshilik, mm.suv.ust.

G_3 – isitish sistemasidagi sirkulyatsion suv sarfi, t/soat

1.4.2. Elevator FIKini aniqlash

Elevator FIKi ushbu ifodadan aniqlanadi:

$$\eta = \frac{G_2 \cdot P}{G_1(H-P)} \cdot 100 [\%] \quad (6)$$

yoki

$$\eta = \frac{\Delta P_0}{\Delta P_0 + \Delta P_p} \cdot (1+u) \quad (7)$$

bu yerda ΔP_0 – elevator soplosida bosim yo'qotilishi, Pa

$$\Delta P_p = S_p \cdot G_p$$

bu yerda S_p – elevator soplosi qarshiligi, Pa.soat²/m⁶

$$S_p = \frac{37,4 \cdot 10^{-6}}{\varphi_1^2 \cdot f_{p1}^2}$$

φ_1 – soploneg tezlik koeffitsiyenti (0.95 qabul qilinadi);

f_{p1} – soploneg chiqish kesim yuzasi.

Hisob Delphi tilida Borland Delphi 7 dasturi yordamida bajarilib, tegishli jadvallarga qiymatlar kiritiladi. Ma’lum tugmalarni bosgandan so’ng, dastur avtomatik qiymatni tayyorlaydi. Chiqqan qiymatlardan olingan natijalarni yozib olamiz.

O’lchash natijalari va ularning qayta ishlanmalari 1.2- jadvalga kiritiladi.

1.2 – jadval

| O’lchash tartib raqami | Tarmoqdagi issiqlik tashuvchining uzatish quvuridan elevatorga kirishdagi parametrlari | | | Tarmoqdagi issiqlik tashuvchining qaytish quvuridan elevatorga kirishdagi parametrlari | | Elevatordagi aralashtirilgan issiqlik tashuvchining parametrlari | | | |
|------------------------|--|----------------|----------------|--|----------------|--|----------------|----------------|----------------|
| | T ₁ | G ₁ | P ₁ | T ₂ | G ₂ | P ₂ | T ₃ | G ₃ | P ₃ |
| 1 | | | | | | | | | |
| 2 | | | | | | | | | |
| 3 | | | | | | | | | |

Algoritm programmasi:

var

Form1: TForm1;

T1,T2,T3:integer;

Q,H,U1,U,G1,G2,g3,p1,p2,p3,D1,D2,p,n1,n2,fp,sp,dp:real;

procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);

begin

T1:=strtoint(edit1.Text);

T2:=strtoint(edit2.Text);

T3:=strtoint(edit3.Text);

g1:=strtofloat(edit4.text);

g2:=strtofloat(edit18.text);

g3:=strtofloat(edit19.text);

p1:=strtofloat(edit20.text);

p2:=strtofloat(edit21.text);

p3:=strtofloat(edit22.text);

p1:=p1*10;

p2:=p2*10;

```

p3:=p3*10;
U:=(T1-T3)/(T3-T2);
U1:=g2/g1;
P:=abs(p2-p3);
D1:=8.5*power(G3,0.5)/power(p,0.25);
D2:=d1/(1+u1);
h:=1.4*p*sqr(1+u1);
fp:=pi*sqr(d2)/4;
Sp:=37.4/(1000000*sqr(0.95)*sqr(fp));
Edit6.Text:=floattostr(U1);
Edit7.Text:=floattostr(U);
Edit11.Text:=floattostr(D1);
Edit12.Text:=floattostr(D2);
Edit9.Text:=floattostr(fp);
Edit8.Text:=floattostr(sp);
Edit5.Text:=floattostr(h);
end;
procedure TForm1.Button2Click(Sender: TObject);
begin
n1:=g2*p/(g1*(h-p))*100;
Edit16.Text:=floattostr(n1);
end;

```

1.5. Hisobot tarkibi

- Issiqlik ta'minotiga kiruvchi qurilmalarning qisqacha mazmuni;
- Boshlang'ich ma'lumot o'lchamlari;
- Boshlang'ich ma'lumotlarning tahlil va o'lchamlari;
- Amaldagi elevator bo'yicha munosib fikrlar.

Nazorat savollari

1. Isitish sistemasida oqimchaviy nasos (elevator)ning vazifasi.
2. Isitish sistemasida elevator qurilmasi va uning ishlash shartlari.
3. Elevatorning aralashma koeffitsiyenti geometrik o'lcham bilan qanday bog'liqlikka ega?
4. Elevator soplosida bosim tushishi isitish qurilmasi bo'yicha o'zgaruvchan suv sarfiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Elevator FIKini oshirish maqsadida qanday choralar qo'llanilishi lozim?

2-LABOROTORIYA ISHI

Issiq suv ta'minoti (ist) tizimlaridagi suv-suvli suv qizdirgichini (sq) qizish yuzasini aniqlash

Ishdan maqsad


1. Issiq suv (IS) tizimlari sxema bo'yicha issiqlik tarmoqlariga (IT) ulash bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash.
2. Ishlab turgan qurilmalarda izlanish va tajriba ko'nikmalarini hosil qilish.
3. Izlanishlar va tajribalar natijasini hisobga olgan holda suv qizdirgichlarni seksiya uzunligini topish va loyihaviy (haqiqiyga) solishtirish.

2.1 Nazariy qism

Isitilish muhitining turiga qarab issiqlik bo'linmalarida (punktlarida) bug' suv va suv suvli suv qizdirgichlari o'rnatiladi. Ularning konstruksiyasiga qarab suv qizdirgichlari qobiq quvurli va plastinali bo'ladi.

Qobiq quvurli suv qizdirgichlarida asosiy element tsilindrli korpus va qobiq quvurli quvurlar yig'inidan iborat korpus ichkarisida joylashgan. Issiqlik tashuvchilardan biri quvurlar ichida harakatlanadi, boshqa issiqlik tashuvchi quvurlar orasidagi bo'shliqda harakatlanadi. Issiqlik tashuvchilar ma'lum bir tezlik bilan harakatlanib faol issiqlik almashishini ta'minlaydi. Bu turdagi suv qizdirgichlari tezlik bilan harakatlanuvchi suv qizdirgich deyiladi. Issiqlik tashuvchining harakat yo'nalishiga qarab tezlik bilan harakatlanuvchi suv qizdirgichlari qarshi oqimli, parallel oqimli va kesishuvchi oqimli suv qizdirgichlariga klassifikatsiyalanadi. Korpus joylashishiga qarab tezlik bilan harakatlanuvchi bug'-suv suv qizdirgichlari vertikal va gorizontal bo'lishi mumkin. Suv suvli qizdirgichlari gorizontal o'rnatiladi. Issiq suv ta'minoti uchun seksiyalari gorizontal qobiq quvurli suv qizdirgichlarida quvurchalar latundan bo'lishi kerak. Suv suvli tezlik bilan harakatlanuvchi suv qizdirgichlari seksiyada teshik bilan ishlab chiqariladi. Seksiyalar 2 va 4 metr uzunlikda bo'lib tashqi diametri 57 mm dan 503 mm gacha, quvurlar soni 4 dan 450 gacha bo'ladi. Qobiq quvurli seksiyali suv qizdirgichlari sifatida issiqlik tashuvchilar bosimi 1.6 MPa va harorati 150°C bo'lgan tayanch blokli suv suvli qizdirgichlar tavsiya qilinadi. Qizdirish yuzasi 16x1 mm diametrli quvurlardan tashkil topgan.

SQlarida IST quvurlar ichida isituvchi (vodoprovod) suvi, quvurlar orasidagi boʻshliqda isituvchi (tarmoq) issiqlik tashuvchi harakat qiladi. Bu suv qizdirgichining korpuslarida linzali kompensatorlar oʻrnatiladi. Hozirgi kunda sanoatda issiqlik boʻlinmalari (punktlari) uchun ikki, toʻrt yurishli 2 va 4 metr uzunlikda bugʻ suvli suv qizdirgichlari ishlab chiqarilmoqda. Bunday qizdirgichlarning qizish yuzasi 6,3 dan 224 m² gacha oʻzgaradi. Issiqlik samaradorligi 0,67 dan 32 MV_T (0,5 – 27,5 Gkal/soat). Quvurlar tizimi latun quvurlardan tashkil topib $d_{Hs} = 16 \cdot 1 \text{ MM}$ boʻladi. Bugʻ bosimi 1,6 MPa. Gorizontal qobiq quvurli seksiyali suv qizdirgich 2.1- rasmda keltirilgan .




2.1- rasm: qobiq quvurli tez harakatlanuvchi suv suvli suv qizdirgich
1-korpus; 2-quvurchalar; 3-quvurli panjara; 4- kalach; 5-issiqlik tashuvchining olib keltiradigan patrubkalar

2.2. Suv qizdirish quvurilmasining taʼrifi

Issiqli almashinuv apparatlari (IAA) deb suv qizdirgich isitiluvchi va isituvchi ishchi muhitni qizdirish uchun moʻljallangan qurilmaga aytiladi. Suv qizdirgich qurilmalari qozonxonalarda taʼminot suvini, tarmoq suvini, sovutuvchi yuvish suvlarini qizdirish va boshqa maqsadlarda foydalaniladi. Hozirgi kunda sirtiy IAA keng tarqalgan boʻlib ular issiqlik tashuvchilarini bir-biridan izolatsiya qila oladi, shu bilan birga ishonchligini va oddiy ekspluatatsiyasini taʼminlaydi. Bundan tashqari, sirtiy IAA qizituvchi bugʻning kondensatini loyqalanishini oldini oladi.

Yopiq tizimlarda tarmoq suvi IST sistemasiga ikkilamchi suvni qizdirish uchun ishlatiladi, bu suv keluvchi, yaʼni istemolchiga kirishda yopiq sistemalarda suv suvli qizdirgichlari oʻrnatiladi. Ularni ulash bir pogʻonali yoki ikki pogʻonali boʻlishi mumkin, ularni parallel ikki bosqichli ketma-ket, yoki aralash sxemalarda ulash mumkin. Suv qizdirgich IST quvurlar ichida isitiluvchi (vodoprovod) suvi harakatlanadi quvurlararo boʻshliqda esa isituvchi (tarmoq) suvi harakatlanadi.

2.2-rasmdagi sxemada isitiluvchi (vodoprovod) suvu t_c harorat bilan suv suvli suv qizdirgichga qaytish tarmoq quvurlaridagi suv suv-suvli qizdirgichining ustki qismida oʻrnatilgan suv-suvli qizdirgichida quvur yoʻlidan pastga harakatlanib issiqlik tarmogʻiga keladi. IST tarmoqidagi issiq suv harorati PT- harorat rostlagich bilan rostlanadi.




2.2-rasm. Ikki pog'onali ketma-ket suv qizdirgich IST issiqlik uzatishga ulangan holda isitish suvi va issiq suv uzatish

2.3. Ishni bajarish tartibi

Izlanish obyekti suv suvli qizdirgichi bo'lib, real sharoitda avtonom issiqlik markazi (punkti), ya'ni TDTU "SPORT MARKAZI"da joylashgan.

Suv qizdirgich isituvchi suvni kirishdagi boshlang'ich haroratini o'lchash uchun T_B va suv qizdirgichdan chiquvchi isitiluvchi suvning oxirgi haroratini o'lchash T_{ox} va yana suv qizdirgichdan chiquvchi suvning T_{ox} va suv qizdirgich kiruvchi isitiluvchi suvning T_B boshlang'ich haroratini o'lchash uchun ultratovushli pyezometr asboblardan foydalaniladi. Isituvchi va isitiluvchi suvning sarfini suv harorati -30°C dan $+200^{\circ}\text{C}$ gacha, o'lchov chegarasi 90m^3 soat bo'lgan ultratovushli «PORTA FLOW MK II-R»-sarf o'lchovchi asboblardan foydalaniladi.



2.3-rasm. Suv qizdirgich qurilmasining sxemasi.

Hisoblash va o'lchashdagi hatoliklarni kamaytirish uchun o'lchashlar 3 marta amalga oshiriladi. O'lchov hisobi natijalaridan o'rtachasi olinadi. Hamma asboblarning ko'rsatkichlari o'lchash jadvaliga kiritiladi.

2.1 jadval

| Parametrlar | O'lchash № | | |
|---|------------|---|---|
| | 1 | 2 | 3 |
| Suv qizdirgichga kirayotgan isitilayotgan suvning boshlang'ich harorati T_B | | | |
| Suv qizdirgichga kirayotgan isitilayotgan suvning oxirgi harorati T_{OX} | | | |
| Suv qizdirgichga kirayotgan qizdirilayotgan suvning boshlang'ich harorati t_B | | | |
| Suv qizdirgichga kirayotgan qizdirilayotgan suvning oxirgi harorati t_{ox} | | | |
| Isitilayotgan suvning sarfi $G_{i.s}$ | | | |
| Qizdirilayotgan suvning sarfi $G_{q.s}$ | | | |

2.4 Hisoblash tartibi suv suvli suv qizdirgich hisobi

Isituvchi suvning sarfi

$$G_{i.s} = \frac{Q}{1000(T_b - T_{ox})}$$

Bu yerda Q – issiqlikning hisobiy hajmi.

T_B – suv qizdirgichga kiruvchi isituvchi suvning boshlang'ich harorati

T_{OX} – suv qizdirgichdan chiquvchi isitiluvchi suvning oxirgi harorati

Qizdirilayotgan suvning sarfi

$$G_{qiz.s} = \frac{Q}{1000(T_b - T_{ox})}$$

Bu yerda: T_b - suv qizdirgichga kiruvchi isituvchi suvning boshlang'ich harorati;

T_{ox} – suv qizdirgichdan chiquvchi isitiluvchi suvning oxirgi harorati suvning quvurlardagi tezligi W_T va quvurlararo bo'shliqdagi W_{MT} teng

$$W_q = \frac{G_{is.s}}{3600 f_q} \text{ m/s} \quad W_{q.b} = \frac{G_r}{3600 f_{q.b}} \text{ m/s}$$

Bu yerda $f_q, f_{q.b}$ –quvurlarda va quvurlararo bo‘shliqda oquvchanlik yuzasi
Isituvchi va isitiluvchi suvning o‘rtacha harorati:

$$T_{orr} = \frac{T_b - T_{ox}}{2}$$

Isitiluvchi suvning o‘rtacha harorati:

$$T_{orr} = \frac{t_b - t_{ox}}{2}$$

Isituvchi suvning quvurlar devoriga issiqlik o‘tish koeffitsiyenti

$$\alpha_1 = (1400 + 18T_{o'r} - 0.035T_{o'r}^2) \frac{W_{qb}^2}{d^{0.2}} \text{ kkal/m}^3 \text{ soat}$$

Isitiluvchi suvning quvurlar devoridan issiqlik o‘tish koeffitsiyenti

$$\alpha_2 = (1400 + 18T_{o'r} - 0.035t_{o'r}^2) \cdot \frac{W_r^2}{d^{0.2}} \text{ kkal/m}^3 \text{ soat}$$

Qarshi oqimli suv qizdirgich haroratlar xilma-xilligining o‘rtacha logorifmi

$$\Delta t_{orr} = \frac{|T_b - t_{ox}| - |T_{ox} - t_b|}{2.3 \lg \frac{T_b - t_{ox}}{T_{ox} - t_b}}$$

Suv qizdirgichida isitilish yuzasi

$$F = \frac{Q}{\eta \cdot K \cdot \Delta t_{orr}}$$

Bu yerda: η – cho‘kindi va quvurlarning ifloslanish hisobga oluvchi koeffitsiyent –
0,6÷0,7

K– issiqlik uzatish koeffitsiyenti

$$K = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_1} + \frac{1}{\alpha_2} + \frac{\delta}{\lambda}}$$

Bu yerda: δ – quvur devorining qalinligi

λ – issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti

Suv qizdirgichlari seksiyalar uzunligi

$$L = \frac{0.316 \cdot K}{d_{orr}^2}$$

Bu yerda: d_{or} – quvurlarning o‘rtacha diametri
 l – uzunlikda suv qizdirgichlaridada seksiyalar soni

$$n = \frac{L}{l}$$

Quvurlar ichidagi bosimning yo‘qolishi:

$$h_r = 0.75W_q^2 n \quad l = 4 \text{ m bo'lganda}$$

$$h_r = 0.4W_q^2 n \quad l = 2 \text{ m bo'lganda}$$

Quvurlararo bo‘shliqda bosimning yo‘qotilishi

$$h_{q.b} = M \cdot W_q^2 \cdot n$$

Hisoblash ishlari kompyuter dasturida amalga oshiriladi, dastur Delpi в Borland Delphi 7 dasturlash tilida yozilgan. To‘g‘ri keladigan jadvalga, o‘lchovlar va kattaliklar kiritiladi, shundan so‘ng dastur avtomatik tarzda hisoblaydi bunda kompyuterda kerakli tugmacha bosilishi lozim. Jadvalda javobi chiqqan kattaliklarni yozib olinadi.

Algoritm programmasi:

```
var Q,T1,T2,P1,P2,P3,X,Y,D,G1,G2,F1,F2,W1,W2,A1,A2,F,L,H1,H2,N:real;
procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
begin
  Q:=Strtfloat(edit1.Text);
  T1:=Strtfloat(edit2.Text);
  T2:=Strtfloat(edit3.Text);
  P1:=Strtfloat(edit4.Text);
  P2:=Strtfloat(edit5.Text);

  G1:=Q/(1000*Abs(T1-T2));
  G2:=Q/(1000*Abs(P1-P2));
  Edit11.Text:=floattostr(G1);
  Edit12.Text:=floattostr(G2);
  ShowMessage
  // ShowMessage+floattostr(G1)+'"')
end;
procedure TForm1.Button2Click(Sender: TObject);
begin
  F1:=Strtfloat(edit9.Text);
  F2:=Strtfloat(edit10.Text);
  W1:=G1/(3600*F1);
  W2:=G2/(3600*F2);
  Edit13.text:=floattostr(W1);
  Edit14.text:=floattostr(W2);
```



```

ShowMessage
end;
procedure TForm1.Button3Click(Sender: TObject);
begin
  T1:=Strtofloat(edit2.Text);
  T2:=Strtofloat(edit3.Text);
  P1:=Strtofloat(edit4.Text);
  P2:=Strtofloat(edit5.Text);
  D:=Strtofloat(edit8.Text);
  A1:=abs(1400+18*((T1+T2)/2)-0.35*Power((T1+T2)/2,2));
  A1:=A1*power(w1,0.8)/power(D,0.2);
  A2:=abs(1400+18*((P1+P2)/2)-0.35*Power((P1+P2)/2,2));
  A2:=A2*power(w2,0.8)/power(D,0.2);
  P3:=(Abs(T1-P2)-Abs(T2-P1))/(23*Log10((T1-P2)/(T2-P1)));
  Edit15.text:=floattostr(A1);
  Edit16.text:=floattostr(A2);
  Edit17.text:=floattostr(P3);
  ShowMessage
end;
procedure TForm1.Button4Click(Sender: TObject);
begin
  X:=Strtofloat(edit6.Text);
  Y:=Strtofloat(edit7.Text);
  F:=Q/(0.6*(1/(1/A1+1/A2+X/Y))*P3);
  L:=0.318*F/(D*1);
  N:=L/2;
  Edit18.text:=floattostr(F);
  Edit19.text:=floattostr(L);
  Edit20.text:=floattostr(N);
end;

```

The screenshot shows a Windows application window titled "Form1" with a light blue background. The interface is organized into two columns of input fields and buttons. On the left side, there are four sections: 1) "Введите значение Q" with a single input field; 2) "Введите значения T1 и T2" with two input fields labeled T1 and T2; 3) "Введите значения T3 и T4" with two input fields labeled T3 and T4, followed by a button "Расчитать значения G1 и G2" and two input fields labeled G1 and G2; 4) "Введите значения Fмг и Fтр" with two input fields labeled Fмг and Fтр, followed by a button "Расчитать значения W1 и W2" and two input fields labeled W1 and W2. On the right side, there are three sections: 1) "Введите значение d" with a single input field, followed by a button "Расчитать значения a1, a2, Tср" and two input fields labeled a1 and a2, and a third input field labeled Tср; 2) "Введите значения X и Y" with two input fields labeled X and Y, followed by a button "Расчитать значения F, L, N" and three input fields labeled F, L, and N.

2.5 Hisobot tarkibi

1. Suv qizdirgich qurilmasi haqida qisqacha ma'lumot .
2. O'lchov natijalar ma'lumotlari
3. O'lchov natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish.

Nazorat savollari

1. Suv qizdirgichi deb nimaga aytiladi?
2. Suv qizdirgichining turlari.
3. Suv qizdirgichining qo'llanilishi va funksiyasi.
4. Suv qizdirgichining issiqlik hisobining mohiyati.
5. Nasoslarning qo'llanilishi.
6. Nasosning bosimini aniqlash.

3- LABORATORIYA ISHI

Issiqlik ta'minoti tizimlarining issiqlik quvurlaridagi issiqlik yo'qotilishlari bo'yicha izlanish olib borish

Ishdan maqsad:

Tajriba o'tkazish yo'li bilan sanoat issiqlik tarmoqlaridagi quvurlarning haqiqiy issiqlik yo'qotishini aniqlab, eng qulay qalinlikdagi issiqlik qoplama materiallarini taklif qilish.

3.1. Umumiy tushuncha

Markazlashgan issiqlik ta'minot tizimining iqtisodiy samaradorligi keng ko'lamdagi zamonaviy issiqlik iste'moliga, ya'ni katta miqdordagi issiqlik qoplama qurilmalari va quvurlarga bog'liq. Issiqlik o'tkazuvchilarda issiqlik tashuvchilar issiqlik manbasidan uzilganda yoki yopilganda ularning parametrlari (harorati, bosimi) pasayadi. Issiqlik qoplamalari bilan qoplanmagan joylarda harorat tez tushib ketadi. Issiqlik qoplamasi issiqlik yo'qotilishini kamaytirish uchun xizmat qiladi va qoplama qilingan yuzada berilgan haroratni ta'minlaydi. Tashuvchi quvurlarda issiqlik yo'qotilishini kamaytirish uchun yonilg'i resurslarini tejash muhim vosita hisoblanadi. Issiqlik qoplamalari va zanglashga qarshi qoplamalar nisbatan ko'p miqdorda bo'lmaydi va ular issiqlik tarmoqlarining umumiy miqdoridan 5-8 % ni tashkil etadi. Shuningdek, sifatli qoplash metallning zanglashga qarshi turg'unligini oshiradi, natijada quvurlarning xizmat qilish muddati jiddiy ravishda oshadi. Issiqlik qoplamalari bilan qoplash ishchi xodimlarning mehnat faoliyatini yaxshilaydi va issiqlik tashuvchilar katta issiqlik manbasidan uzib tashlanganda yoki berkitilganda ham issiqlik tashuvchilarning yuqori parametrlarini saqlab qoladi.

Quvurlarni issiqlik qoplamalari bilan qoplash va issiqlik tarmoqlarini jihozlash issiqlik tashuvchilarning haroratiga bog'liq bo'lmagan har qanday quvur yotqizish usullarida qo'llaniladi. Issiqlik qoplamalari maxsus materiallardan iborat. Bu

qoplamlar shunday materiallardan ishlanishi kerakki, unda issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $0,1 \text{ kkal/m}\cdot\text{soat}\cdot\text{grad}$. dan oshmasligi kerak. Qoplama qalinligi hisob ishlaridan aniqlanadi va material sifatiga ham bog'liq bo'ladi, shuningdek, issiqlik tashuvchilarning harorati va atrof muhit ta'siriga ham bog'liq. Harorat tushishining eng qulay kattaligi va qoplama qalinligi texnik-iqtisodiy hisoblar bilan aniqlanadi. Bu hisoblarni bajarishda issiqlik qoplama qurilma jihozlari narxlarini bilan issiqlik energiyasiga ketgan xarajatlar solishtiriladi. Keltirilgan yillik xarajat kam chiqsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Issiqlik qoplama materiallari tashqi muhit, y'ani haroratning to'xtovsiz tebranishi, namligi, bosimi bilan doimiy aloqada bo'lib turadi. Issiqlik qoplamlari yer osti issiqlik tarmoqlarida va kanalsiz issiqlik o'tkazishlarda noqulay holatlarda bo'lishi mumkin. Shuning uchun issiqlik qoplamlari iqtisodiy tomonlarni unumdor bo'lishi va uzoq muddat xizmat qilishi uchun issiqlik qoplama jihozlari tanlashda uning o'rnatilish shart-sharoitlari, tashqi muhitning ta'siri, suvning pog'onasi, issiqlik tashuvchilarning harorati, issiqlik tarmoqlarining gidravlik rejimda ishlashi va boshqalarni hisobga olish kerak.

Issiqlik qoplama jihozlari uzoq muddat ishlash davomida yuqori issiqlik himoya vositalariga va suvning yutilishiga ega bo'lishi kerak. Suvning yutilishi va suv haydash yuzasining tarkibi, issiqlik qoplama materiallari boshlang'ich fizik issiqlik tarkiblari saqlanib qolinishida va sanoat issiqlik tejamkorligida muhim ahamiyatga ega. Quruq issiqlik qoplamlarining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $0,05-0,25 \text{ Vt/m}^2\cdot\text{C}$ o'zgaradi, ba'zida issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti 3-4 marta ortadi.

Zichlik oshishi bilan materiallarning issiqlik qoplama tarkibi yomonlashadi. Og'ir issiqlik qoplamlari simli setka yoki o'ralgan simlarga ta'sir qiladi, ya'ni issiqlik qoplamlari osilib qolib quvurdan uzilib ketadi va shu tarzda qoplama jihozlari o'zining tog'ridan-to'g'ri vazifasini bajarolmaydi. Shu bilan bog'liq bo'lgan holda bandajli qotirma material (setka, sim)lar yuqori mexanik va zanglashli ta'sirlarga, shuningdek, tashqi yuklamalar va namliklar ta'sir o'tkazishiga qarshi tura olish xususiyatiga ega bo'lishi kerak.

3.2. Issiqlik qoplamlarining konstruktiv tasnifi

Issiqlik qoplama materiallari zarrasimon, tolali va pastasimon moddalar ko'rinishida qo'llaniladi. Quvur yuzasidagi qoplama materiallari, mahsulot mustahkamligida va ularni zanglashdan himoya qilishga mos keladigan issiqlik qoplamlarini konstruktiv rasmiylashtirish kerak. Issiqlik qoplamlari konstruksiyalariga quyidagilar kiradi:

- metall yuzalaridagi zanglashga qarshi qoplamlar;
- asosiy qoplama qatlam;
- tashqi qoplama ishlanmasi.

Asosiy qoplama qatlam va tashqi ajratma qo'llanilishi bo'yicha bir necha ko'rinishdagi issiqlik qoplama konstruksiyalariga bo'linadi:

- to'ldiruvchi;
- mastikali (mumsimon modda);
- osmali;
- saqlanuvchan;

- jiplashgan.

Berilgan ishda saqlanuvchi turdagi ikki xil qoplama materiallari-mineral paxtali va bazalt tolali qoplamalarini tekshirish zarur. Saqlanuvchi qoplama taxlanishida tikiluvchan o'ramlar bilan bajariladi. 3.1-rasmda ikki tomonlama metall setka yoki shisha gazlama (стеклоткань) bilan taxlangan mineral paxta yoki shisha tolali o'ramlar ishlatilgan konstruktsiya ko'rsatilgan. O'ramlar taxlamalar bilan yumshoq silliqlangan sim yoki shisha iplar bilan tikiladi. Quvurlarda o'ramlar simli bichilma va qo'shimcha tashqi tahlama ustidan uzunasiga va ko'ndalang tikilgan ulamalar bilan mustahkamlanadi. Keyin ushbu qurilma qoplovchi qatlam bilan yopiladi, bu issiqlik quvurlari o'rnatilgan usulga qarab tanlanadi. Metall setkalarni o'rnatishda qoplovchi qatlam o'rnida azbestsementli qorishma suvalishi eng qulaydir. Bu g'adir-budir joylarini tekis qiladi va asosiy qoplama qatlami bilan mustahkam jiplashadi.

Ko'p quvurlar joylashgan bir yo'nalishli kanallarda har bir quvurdagi issiqlik oqimi kanalidagi havoni qizdiradi, keyin umumiy issiqlik qizigan havolar kanal devorlari orqali yerga (tuproqqa) singib tarqalib ketadi. Bunday issiqlik o'tishida bir quvurning issiqlik yo'qotishi boshqa issiqlik quvurlarining issiqlik yo'qotishiga bog'liq. Har bir quvurning issiqlik yo'qotishini aniqlash uchun avvalo kanaldagi havo haroratini aniqlab olish zarur.

Birinchi va ikkinchi quvur qatlami termik qarshilik miqdorini aniqlab olamiz.

Issiqlik tashuvchilar haroratini mos ravishda τ_1 va τ_2 orqali belgilaymiz. Termik qarshilik miqdorini R_3 deb belgilaymiz.

Ushbu belgilar orqali issiqlik balans tengligi ushbu ko'rinishda yoziladi:


$$\frac{\tau_1 - t_k}{R_1} + \frac{\tau_2 - t_k}{R_2} = \frac{t_k - t_0}{R_3}$$

yoki:

$$q_1 + q_2 = q \quad (3.1)$$

bu yerda q_1 —birinchi va ikkinchi quvur solishtirma issiqlik yo'qotilishi BТ/М;

q_2 —yerga singib ketilayotgan issiqlik yo'qotilishini umumiy solishtirmasi.



3.1- rasm. Taxlanilishida tolali materiallardan tikilgan o'ramdan iborat qoplama:

1—zanglashdan saqlovchi qoplama;

2—metall setkali ichki taxlam; 3—ulama joylar ishlanmasi;

